

## **MILLIY XOS SO'ZLAR YOKI REALIYALAR TUSHUNCHASI TA'RIFI**

To'xtanova Mumtozbegim Ortiqali qizi

Namangan Davlat universiteti 1-kurs doktoranti

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada milliy xos so'zlar yoki realiyalar tushunchasining ta'rifi, uning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, realiyalar, milliy xos so'zlar.

Hozirgi global, turli xil o'zaro ta'sirlar kuchaygan bir davrda, realiya kabi madaniy jihatdan aniqlangan so'zlar sinfini o'rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Realiya so'zi lotincha sifat so'zining ko'plik shaklidan kelib chiqadi (*realis,-e, ko'p. realiya*) va "haqiqiy" yoki "muhim" degan ma'noni anglatadi. [Vlaxov, Florin, 1980, b. 7-8].

O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab, jamiyatning milliy o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi elementlar sifatida realiyalarni tilshunoslardan tahlil qila boshladilar. [Vlaxov, Florin, 1980, b. 5]. Keyingi davrda ko'plab olimlar: L.S. Barxudarov [Barxudarov, 1975], M.L. Vaysburd [Vaysburd, 1972], V.S. Vinogradov [Vinogradov, 2001, 2006], S. Vlaxov, S. Florin [Vlaxov, Florin, 1980], V.G. Gak [Gak, 1995, 1998], V.M. Rossels [Rossels, 1955], L.N. Sobolev [Sobolev, 1952, 1955], G.D. Tomaxin [Tomaxin, 1988], A.D. Shvaytser [Shvaytser, 1988] va boshqalar tomonidan realiyalar muammosi ko'rib chiqildi, ammo hozirgi kunga qadar realiya to'g'risida yagona tushunchalar hali ishlab chiqlimagan. Shu munosabat bilan mahalliy va xorijiy manbaalarda "realiya" tushunchasi evolyutsiyasini o'rganish o'rini ko'rindi.

L.N. Sobolev tarjima qo'llanmalariga murojaat qilsak, "realiya" atamasi olim tomonidan milliy koloritni aks ettiruvchi (alohida so'z va iboralar), ma'lum til birliklariga nisbatan qo'llanilganligini aniqlaymiz. Uning fikricha, boshqa tillarda realiyalar ekvivalentlari yo'q, chunki realiyalar bilan ifodalanuvchi tushunchalar o'zga til madaniyatlarida mayjud emas. [Sobolev, 1952, 1955, b. 281, b. 290]. Shuni aytish lozimki, olim keyinchalik rivojlanadigan va to'ldiriladigan, realiya ta'rifini birinchilardan bo'lib olib kirgan.

L.N. Sobolev ta'rifidan farqli o'laroq, turli xil tushunchalar va xodisalar bir jamiyatdan boshqasiga madaniy chegaralar "o'chirilgan" davrda o'tishi mumkin, shuning uchun realiyalar ham boshqa til madaniyatida paydo bo'lishga qodir. Realiyalarning boshqa tillarda ekvivalenti yo'qligi haqidagi tasdiqlar ham baxs va munozaralidir.

M.L. Vaysburd realiyalarni mintaqaviy tadqiqotlarga mos ravishda tahlil qiladi. Realiyalar qatoriga lingvist kundalik-ijtimoiy hayot bilan bog'liq tushunchalar va predmetlarni, taniqli personajlar ismlari (tarixiy arboblar, siyosatchilar, yozuvchilar, olimlar), toponimik ob'yektlar, tabiat hodisalari, san'at ob'yektlari va boshqalarni kirdizadi. [Vaysburd, 1972,

b.98]. Vaysburd nafaqat leksik birliklar, balki butun jumlalar realiyalar sifatida bo'lishi mumkin deb ta'kidlaydi.

Shunga qaramay, ko'plab olimlar L.N. Sobolev ta'rifiga qo'shilib, realiyalarni ekvivalenti yo'q so'zlar qatoriga kiritishadi. Masalan, A.D. Shveytser quyidagi ta'rifni keltirib: realiya – bu "berilgan til madaniyatiga xos noyob referentlarni bildiruvchi va taqqoslanadigan til madaniy hamjamiyatida yo'q milliy til birliklari" sifatida ta'riflaydi. [Shveytser, 1973, b.145]. Realiya va uni ifodalash uchun ishlatiladigan so'zlar turli ma'noli tushunchalarligiga darhol aniqlik kiritib ketishimiz kerak. Ba'zi chalkashliklarni oldini olish uchun ko'plab tilshunoslar "so'z-realiya" va "predmet-realiya" larga ajratadilar. [Gak, 1998; Vlaxov, Florin, 1980; Fedorov, 2002 va b.]

Shunday qilib, "Непереводимое в переводе" asarida [S. Vlaxov, S. Florin, 1980] bolgar tilshunoslari va tarjimonlari realiyalarni o'rganish yondashuvlarini umumlashtirib, rivojlantirishga katta hissa qo'shgan S. Vlaxov va S. Florinlar "realiya-predmet"ni juda keng ma'noga ega va "tildan tashqari haqiqat" elementi [Vlaxov, Florin, 1980, b. 7], "realiya-so'z" esa lisoniy belgini ifodalab, u yordamida "realiya-predmet" o'zining lingvistik ko'rinishini oladi deb ta'kidlashadi [Vlaxov, Florin, 1980, b. 7].

A.V. Fedorov o'zining "Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы)" asarida tabiatda mavjud bo'lган har qanday narsani bir tildan ikkinchi tilga "tarjima qilib" bo'lmasligi kabi, realiyalarni o'zini "tarjima" qilish imkonsiz, realiya – ekstralngistik tushuncha bo'lib, uni tarjima qilib bo'lmaydi [Fedorov, 2002, b.171]. Muallif fikricha, bir qator asarlarda uchraydigan "realiya tarjimasi" iborasi terminologik jihatdan noto'g'ri, ammo uning keng tarqalganligi tufayli, qisqartirilgan va soddalashtirilgan konvensiya ifoda usuliga kirgizish kerak bo'ladi [Fedorov, 2002, b.171]. Bundan tashqari, A.V. Fedorov ta'kidlashicha, "realiya ko'chishi" degan so'z birikma mavjud bo'lib, ma'nosi bo'yicha keng va ekstralngistik tushunchalar bilan qo'llanilishi mumkin. Taqdim etilgan ish doirasida realiyalar ham tilshunoslik nuqtai nazaridan, ham fan tarzidan ko'rib chiqiladi.

Keling, "realiya" tushunchasini aniqlashning boshqa yondashuvlarini tahlil qilaylik. Semiotika nuqtai nazaridan bu masala V.G. Gakning "Языковые преобразования" (Til o'zgarishlari) asarida keng yoritilgan [Gak, 1998]. Olimning fikricha, madaniyat belgilar (kulturemalar) dan iborat. V.G. Gak har qanday belgi ma'lum bir realiyani belgilash va ifodalash uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi. Madaniyat va realiya o'xshash tushunchalar, lekin bir xil emas. Kulturema realyaning lingvistik ifodasidir. Va realiya negizida esa V.G. Gak madaniyatga taalluqli hamma narsani – predmetlar, funksiyalar, urf-odatlar, faktlar, xulqlar va boshqlarni tushunadi. [Gak. 1998, b.142]. Olim yozadiki kulturemalar qiyoslash tahlilida simmetriya va assimetriyalar aniqlanadi.

Eslatib o'tamizki, birinchi holda vazifalar, ma'nolar va nomlash usullari mos kelishi tufayli realiyalarni talqin qilish va tarjima qilish jarayoni qiyinchiliklar tug'dirmaydi.

Lingvokulturologik muammolar assimetriyada paydo bo'lishi mumkin. Olimning o'zi assimetriya quyidagi uch darajada paydo bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi:

- 1) Semiotik (taqqoslangan madaniyatlardan birida realiya yoki uning leksik belgisi yo'qligi);
- 2) Paradigmatik (turli darajadagi nomuvofiqliklar (realiyalar, belgilar yoki ma'nolar darajasida));
- 3) Sintagmatik (bitta jarayonning tarkibiy qismlari bir jamiyatda bir atama bilan belgilanadi, lekin boshqasida turli nomlar bilan farqlanadi) [Gak, 1998, b. 142-151].

Shunday qilib, V.G. Gak turli xil madaniyatlarda "realiya-predmetlar" faoliyatini har tomonlama o'rganuvchi va solishtiruvchi, kulturemlar tuzilmasidagi belgi munosabatlarining asosiy turlarini bat afsil tizimli tavsiflaydi, hamda "realiya-so'z" bayoni va tarjimasi xususiyatlarini tahlil qiladi.

Realiyalarni tarjimashunoslik nuqtai nazaridan ko'rib chiquvchi rus filologi V.S. Vinogradovning asarlari tahlili quyidagilarni aniqlash imkonini berdi, olim realiyani ekvivalent siz lug'at tarkibiga kiritsada, bu terminni unchalik to'g'ri emas, chunki "tarjima jarayonida bunday so'zlar yoki boshqa ekvivalentlar topiladi" deb hisoblaydi [Vinogradov, 2001, b.37]. V.S. Vinogradov realiyalarni davlat ma'muriy tuzilishi, jamiyatning ijtimoiy, maishiy, etnografik, mifologik va boshqa xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi vosita sifatida belgilaydi [Vinogradov, 2001, b. 81, 104-109].

Olim metaforik, ekspressiv-emotsional holatda o'z aksini topadigan, to'g'ri tushunish va yetkazish, madaniy bilim va milliy xususiyatlarga bog'liq assotsiativ realiyalarni umumiyl guruhdan ajratadi. Habardor bo'limgan qabul qiluvchida bunday realiyalar "yolg'on assotsiatsiya"ni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatda, ularni to'g'ri talqin qilish va chet tiliga adekvat o'tkazish imkonsiz. Olim ta'kidlashicha, assotsiativ realiyalar eng katta murakkablikni namoyon qiladigan bir paytda, tarjimonlar ekvivalenti yo'q leksika bilan juda muvaffaqiyatli ishlashadi [Vinogradov, 2001, b. 38-39].

L.S. Barxudarovning "Til va tarjima" (Язык и перевод) [Barxudarov, 1975] asariga e'tibor qaratsak, unda badiiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyot misolida umumlingvistik nuqtai nazardan tarjima qilish jarayoni tahlil qilinadi. Muallif, realiyalarni "ma'lum bir xalq va mamlakatga xos narsa va xodisalar" deb belgilaydi [Barxudarov, 1975, b. 13.].

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бархударов Л.С. Б 24 Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). М., «Междунар. отношения», 1975.
2. Виноградов В.49 Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). — М.: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001, — 224 с.

3. Федоров А. В. Ф33 Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы): Для институтов и факультетов иностр. языков. Учеб. пособие. — 5-е изд. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ; М.: ООО «Издательский Дом «ФИЛОЛОГИЯ ТРИ», 2002. - 416
4. Соболев, Лев Николаевич. Пособие по переводу с русского языка на французский [Текст] : [Для вузов]. - Москва : Изд-во лит. на иностр. яз., 1952. - 404 с.
5. Швейцер А.Д. Ш34 Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. — М.: Наука, 1988. — 215с.
6. С.И. Влахов, С.П. Флорин
7. Непереводимое в переводе. – Изд.3-е б испр и доп. – М.: “Р.Валент”, 2006. – 448 с.